

SUN'YI INTELLEKT VA IJTIMOIIY JARAYONLAR O'ZARO BOG'LIQLIGI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2025-24-405-409>

Toshboboyev Maqsud Jalilovich

Falsafa fanlari bo'yicha PhD,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti dekani
+99890 645 17 22

ANNOTATSIYA

Globallashuvning shiddat bilan kechayotgan hozirgi davrida inson va texnikaning, xususan, sun'iy intellektning ijtimoiy jarayonlarga ta'siri tobora kuchaymoqda. Ushbu maqolada sun'iy intellekt va ijtimoiy jarayonlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik falsafiy, ijtimoiy va texnologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Texnologik taraqqiyot, raqamlashtirish, kommunikatsiya vositalarining rivoji insoniy muloqot, kasb tanlash, mehnat bozori va ma'naviy qadriyatlar tizimiga qanday ta'sir ko'rsatayotgani yoritiladi. Shuningdek, sun'iy intellekt asosidagi tizimlarning imkoniyatlari va cheklovlari, ularning kompensatorlik va kommunikativ ahamiyati haqida tahliliy fikrlar bildiriladi.

Kalit so'zlar: *sun'iy intellekt, ijtimoiy jarayonlar, texnologik taraqqiyot, raqamlashtirish, kommunikatsiya, mehnat bozori, algoritm, kompensatorlik.*

ВЗАИМОСВЯЗЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И СОЦИАЛЬНЫХ ПРОЦЕССОВ

АННОТАЦИЯ

В условиях стремительно развивающейся глобализации возрастает взаимосвязь между человеком и техникой, особенно в контексте искусственного интеллекта (ИИ). В статье рассматривается философский, социальный и технологический анализ взаимосвязи между ИИ и социальными процессами. Анализируется влияние технологического прогресса, цифровизации и современных коммуникационных средств на межчеловеческое общение, выбор профессий, рынок труда и систему духовных ценностей. Особое внимание уделяется возможностям и ограничениям систем, основанных на ИИ, их компенсаторной и коммуникативной роли.

Ключевые слова: *искусственный интеллект, социальные процессы, технологическое развитие, цифровизация, коммуникация, рынок труда, алгоритм, компенсация.*

THE INTERCONNECTION BETWEEN ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND SOCIAL PROCESSES

ABSTRACT

In today's rapidly globalizing world, the interconnection between humans and technology—particularly artificial intelligence (AI)—is becoming increasingly influential in shaping social processes. This article offers a philosophical, social, and technological analysis of the relationship between AI and societal dynamics. It explores how technological advancement, digitalization, and new communication tools affect human interaction, career choices, the labor market, and systems of moral values. The paper also discusses the potential and limitations of AI-based systems, emphasizing their compensatory and communicative significance.

Keywords: artificial intelligence, social processes, technological development, digitalization, communication, labor market, algorithm, compensation.

Bugungi tez suratlar bilan rivojlanib borayotgan globallashuv asrida inson va texnikaning o‘zaro bir-biriga chambarchas bog‘liqligi asosida ijtimoiy munosabatlarga bo‘lgan tasirini ilmiy tahlil qilishni talab etadi. Ijtimoiy munosabatlar doimo insonlar o‘rtasida yuzaga keluvchi o‘zaro muloqot vosidalarida namayon bo‘ladi. Lekin hozirgi texnika asrida bu masalada sun‘iy intellekt vositalaridan keng foydalanilayotganligi, buning natijasida yuzaga kelayotgan jarayonlarni falsafiy tahlil etishni talab etadi. Biz bugun texnologik o‘zgarishlar taraqqiy etgan, inson va sun‘iy intellekt o‘rtasidagi raqobat kuchaygan davrda yashamoqdamiz. Hozirda ilmiy tekshirish markazlari, startaplar va yirik tashkilotlarda yaratilayotgan ilmiy, texnologik va inqilobiy o‘zgarishlar insoniyat hayotini cheksiz o‘zgarishiga hizmat qilmoqda. Kecha shunchaki fantastika bo‘lib ko‘ringan jarayonlar ilm-fan rivojlanishi natijasida hayotiy haqiqatga aylanmoqda. Bunday o‘zgarishlar nafaqat yangi imkoniyatlarni ochib beradi, balki insoniyat oldiga yechimini topish lozim bo‘lgan qator mulohazalarni yuzaga keltiradi. Ayniqsa, sun‘iy intellektning algoritmlarni modellashtirish (nazariyalarni isbotlash, qaror qabul qilish), tabiiy tilni qayta ishlash, zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirish (neyron tarmoqlar, bioalgoritmlar), tasvirni aniqlash, aqlli robotlar, mashina yaratish va xizmat ko‘rsatish sohalarini avtomatlashtirish kabi yo‘nalishlari kuchayib bormoqda.¹ Yuqoridagilardan kelib chiqib aytishimiz mumkin texnologiyalar qancha tez rivojlangani kabi hayot suratlari ham shuncha

¹ Toshboboyev M.J. Axborotlashgan jamiyatda sun‘iy intellektni falsafiy tahlili. -T.: Metodist. 2023y. 7 b.

jadallashmoqda. Bundan bir asr oldin yillar davomida amalga oshirilgan ishlarni, bugungi kunga kelib qisqa muddatlarda bajarish imkoniga ega bo‘lmoqdamiz.

Hozirgi vaqtda rivojlangan AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Belgiya, Finlandiya, Yaponiya, Xitoy, Singapur kabi davlatlarda ijtimoiy jarayonlarning juda katta qismi qo‘l mehnatidan, raqamlashtirishga o‘tkazilgan. Buning natijasida iqtisodiy rivojlanish hamda aholi turmush darajasini yanada yengillashtirishga erishilganligini alohida takidlash lozim bo‘ladi. Huddi shun kabi mamlakatimizda ham so‘ngi yillarda raqamlashtirish yo‘nalishida sezilarli natijalarga erishmoqda.

Hozirgi globallashuv jarayonida inson ongida o‘zini qurshab turgan borliqni anglashga yangicha qarashning shakllanishi ijtimoiy zaruriyat sifatida dialektik sababga ko‘ra muhimligi, bu jarayonda sun‘iy intellekt tizimining tutgan kompensatorlik va kommunikativ jihatdan o‘rni va uning inson moddiy-ma‘naviy manfaatlari uyg‘unligini ta‘minlashi mumkinligini ijtimoiy asoslash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Insoniyat tamaduning eng yuqori darajadagi o‘rishini XXI asrga kelib guvohiga aylanmoqdamiz. Bugungi kunda shunchaki fantastik hisoblangan uchar mashinalar, yoki masofadan turib boshqariladigan dronlar, inson miyasida o‘ylagan barcha fikrlarini real hayotda aks ettiradigan robotlar kash etilishi bu shubhasiz texnika asrining cheksiz yutuqlaridan darak bermoqda. Sun‘iy intellekt – matematika va mantiqning o‘zaro aloqadorlikda rivojlanishi natijasida paydo bo‘lgan mustaqil ilmiy tadqiqot sohasi bo‘lib bu nafaqat ilmiy faoliyatni rivojlantirish orqali insoniyatga yengillik yaratish balki, ijtimoiy jarayonlarda o‘zaro muloqat vositasi bo‘lib ham hizmat qiladi. Shu sababli ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda aniq va tabiiy fanlar kabi ijtimoiy gumanitar sohalarni tadbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy axborotlashgan jamiyatda sun‘iy intellekt eng ilg‘or ilmiy fanlardan biri va kelajakning asosiy texnologiyasi sifatida qaraladi.

Demak birinchi navbatda sun‘iy intellekt o‘zi nima, u orqali qanday harakatlarni amalga oshirish mumkin bo‘ladi. Atrof-muhitdagi muammolarga yechim topishda odamlarga o‘xshab fikrlaydigan, ularga taqlid qiladigan dastrularga sun‘iy intellekt deb ataladi. Sun‘iy intellekt tizimlarini yaratish aniq mehanizmlar asosida amalga oshiriladi. Xususan machine learning texnologiyasi “kompyuterni o‘qitish” yoki “mashinani o‘qitish” deb ataladi. Bunda kompyuterga bir muammo korsatiladiva uning yechimi ham oldindan tayyorlanadi. Misol uchun biror bir odamni taniydigan dastur yaratish uchun avval bu kompyuterga o‘sha insonning suratlarini yuklaymiz, kimligini aytamiz. Kiyin esa bu kim degan savolni oldiga qo‘yamiz va bu falonchi degan javobni o‘zimiz aytamiz. Shundan

kiyingina kompyuter minglab suratlarni ko‘rganda ham bu odamni taniydi.² {2. 14} Agar masalaga jiddiy e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, suniy intellekt o‘z holicha hech qanday yangilik yaratmaydi balki, avval mavjud bo‘lgan insonlar orasida qo‘lanilgan masalalarni texnika va inson ijodkorligi asosida amaliyotga taqdim etadi.

Ingliz olimi D.Bell «Postindustrial jamiyatda hokimiyat endi xususiy mulkga emas, balki bilimga tayanadi. Iqtisodiyot birinchi navbatda moddiy mahsulotlarga emas, xizmat ko‘rsatishga asoslanadi. Siyosiy qarorlar faqat ratsional-texnik fikrlarga asoslanadi, Kishilar ijtimoiy qadriyatlar munosabatlarida umumiy konsensusga (munozarali savol va nizolarni kelishuv asosida hal etish) erishadilar, mutaxassislar ratsional uslublarga tayanib, tizimli tahlil va qarorlar qilishga moslashadilar. Qisqacha qilib aytganda, bizni professional boshqaruvchi va texnokratlar davri kutmoqda». ³ {3.119} Demak, texnika taraqqiyoti barchamizdan zamon talabiga moslashib, texnika imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalanishni hayotiy qoidaga aylantirishimiz lozimligini talab etadi. Bunda biz bilgan iqtisodiy qoidalar ishlab chiqarish va sanoatlashish o‘rnini, yangi turdagi axborotlar va xizmat ko‘rsatishning qulayligi masalalari egallaydi. Bundan kelib chiqadiki zamonaviy dunyoda texnika va ilm-fan imkoniyatlaridan samarali foydalana olgan davlatlar yanada yuqori marralarni zabt etadi. Shu o‘rinda yana bir masalaga e‘tiborimizni qaratsak, insonlarning o‘zaro muloqotida asosan texnika imkoniyatlari, ijtimoiy tarmoqlar va shu kabi vositalar asosiy muloqot vositasiga aylansa bu insonlarning o‘zaro begonlashuv muammasini yuzaga keltiradi. Bu muammoning oldini olish uchun esa, inson ma‘naviy dunyosini yanada boyitish buning uchun texnika imkoniyatidan samarali foydalanish talab etiladi. Masalan: Kitob o‘qish, til o‘rganish, kasbiy malakalarni oshirish, uzoq masofadagi tanishlar bilan o‘zaro muloqat qilish kabi jarayonlarni amalga oshirishda sun‘iy intellekt vositalaridan unumli foydalanish mumkin.

Biz to‘rtinchi sanoat inqilobining shiddatli va ko‘lamini to‘laligicha tushinib yetmadik. Milliardlab odamlarning mobil qurilmalar yordamida o‘zaro bog‘lanib, ko‘z ko‘rib quloq eshitmagan ma‘lumotlarni qayta ishlash quvvati, ularni saqlash hajmi va bilimlardan foydalanishi natijasida kelib chiqadigan cheksiz imkoniyatlar haqida o‘ylab ko‘radigan bo‘lsa bu hodisaning naqadr muhim ekanligini guvohi bo‘lamiz. Suniy intellekt robot texnologiyalari, buyumlar internet, o‘zi yurar avtomobillar, uch o‘lchamli

² O‘zbekistonda oliy ta‘lim. T. №3. 2023 y

³ Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество. – М.: 1999. – С. 119.

printlash nan ova biotexnologiyalar, quvvatni zahiralash, kvant komyuterlari vca boshqa ko‘plab sohalarida erishilgan ko‘plab yutuqlar endi sinov bosqichida emas balki amaliyotga keng joriy etilmoqda. ⁴ {3.10}. Yuqoridagilardan ma’lum bo‘ladiki bugun insoniyat nafaqat texnika imkoniyatlaridan unumli foydalanishi balki, ular keltirib chiqarishi mumkin

Sun’iy intellekt va ijtimoiy munosabatlar haqida so‘z ketganda yaqin yillarda kelajakda insonlar qanday kasblar bilan mashg‘ul bo‘ladi degan savol barchamizni qiziqtrishi aniq. Chunki bundan kiyin tanlanadigan kasblar texnologiyalar bilan bo‘g‘liq bo‘lganligi uchun o‘lmaydigan kasblar bo‘lib, qo‘l kuchi va aqliy mehnat sohibi bo‘lgan insonlarga munosib raqobatchi hisoblanadi. Ilm- fan taraqqiyoti bo‘yicha AQSH assotsatsiyasining Vashingtonda o‘tgan yillik yig‘ilishida ishlab chiqarishda band bo‘lgan xodimlarning 70 (%) foizi robot texnikasining rivojlanishi sababli ishsiz qoladi, degan xulosaga kelgan. Ayni paytda sun’iy idrok kopirayterlik, jurnalistika, o‘qituvchilik, huquqshunoslik kabi aqliy mehnat talab qiladigan ishlarni ham egallab olish ehtimoli oshib bormoqda. Hozircha suni’iy idrokni imkoniyatli chegaralangan lekin, u yildan-yilga takomillashib bormoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak bugun inosniyat rivojlanishining yuqori chegarasini zabt etganligiga guvoh bo‘lamiz. Qisqa vaqt ichida sun’iy intellekt imkoniyatlari shu darajada osishga erishdiki, endi ayrim masalalarni hal etishda inson omiliga ehtiyoj qolmadi. Bu jarayon bir tomondan juda ham ijobiy ahamiyat kasb etadi. Sababi inson uchun eng muhim bo‘lgan vaqt va resursni tejashning sinalgan vositasidir. Shu bilan birga insonlar o‘rtasida ijtimoiy munosabatlar masalasida, shahsiy javobgarlikni kamayishi, texnika imkoniyatlariga qaramlik, axborot oqimida tahlil qilish imkoniyatlarining pasayishi va eng muhimi insonlarning o‘zaro begonalshuv muammosi yuzaga keladi. Bu dolzarb jarayonda inson uchun eng muhim qurol shubhasiz bilim hisoblanadi. Shunday ekan kelajagimizni qay darajada yorqin va farovon bo‘lishi ta’limga bo‘lgan e’tibor bilan belgilanadi.

REFERENCES

1. Toshboboyev M.J. Axborotlashgan jamiyatda sun’iy intellektni falsafiy tahlili. -T.: Metodist. 2023y. 7 b.
2. O‘zbekistonda oliy ta’lim. T. №3. 2023 y
3. Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество. – М.: 1999. – С. 119.
4. Klaus. Shvab “To‘rtinchi sanoat inqilobi” Toshkent. Nihol. 2022y. 10 b.

⁴ Klaus. Shvab “To‘rtinchi sanoat inqilobi” Toshkent. Nihol. 2022y. 10 b.